

XII. KORXONA VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(Adliya Vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilning 1 iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 34 641 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 33 555 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 96,9 % ni tashkil qildi.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (33,6 %), Chust (8,4 %), Namangan (6,9 %) va Uychi (6,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2021 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	34 641	100,0	33 555	100,0
Namangan sh.	11 643	33,6	11 155	33,2
Mingbuloq	1 526	4,4	1 497	4,5
Kosonsoy	2 117	6,1	2 069	6,2
Namangan t.	2 373	6,9	2 331	6,9
Norin	1 670	4,8	1 639	4,9
Pop	2 188	6,3	2 148	6,4
To'raqo'rg'on	2 185	6,3	2 145	6,4
Uychi	2 304	6,7	2 223	6,6
Uchqo'rg'on	2 028	5,8	1 986	5,9
Chortoq	1 937	5,6	1 862	5,5
Chust	2 918	8,4	2 803	8,4
Yangiqo'rg'on	1 752	5,1	1 697	5,1

Ro'yxatdan o'tgan subyektlarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

(2021 yilning 1 iyul holatiga)



- | | | | |
|----------------|-------------|-----------------|-----------------|
| ■ Namangan sh. | ■ Mingbuloq | ■ Kosonsoy | ■ Namangan |
| ■ Norin | ■ Pop | ■ To'raqo'rg'on | ■ Uychi |
| ■ Uchqo'rg'on | ■ Chortoq | ■ Chustoq | ■ Yangiqo'rg'on |


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (30,5 %), sanoat (21,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,3%) hamda qurilish (7,4 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
(2021 yilning 1 iyul holatiga)


	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	30 222	100,0	29 262	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 854	9,4	2 780	9,5
sanoat	7 348	24,3	7 129	24,4
qurilish	2 546	8,4	2 463	8,4
savdo	10 548	34,9	10 167	34,7
tashish va saqlash	1 137	3,8	1 109	3,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 555	5,1	1 488	5,1
axborot va aloqa	481	1,6	472	1,6
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	597	2,0	585	2,0
boshqa turlari	3 156	10,5	3 069	10,5

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-xuquqiy shakli bo'yicha
2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ma'suliyati cheklangan jamiyat



Xususiy korxonona




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonalar soni
(2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra 1 191 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 424 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 155 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 420 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 239 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4 taga yoki 1,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining xududlar kesimida soni

(2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra 20 628 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 397 taga yoki 127,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 083 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 246 taga yoki 126,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 687 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 410 taga yoki 118,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 7 549 ta (jami dagi ulushi 37,6 %), Uychi 1 448 ta (7,2%), Pop 1 360 ta (6,8%), Chortoq 1 280 ta (6,4%), Namangan 1 291 ta (6,4%), Kosonsoy 1 221 ta (6,1%), Chust 1 091 ta (5,4%), Yangiqo'rg'on 1 038 ta (5,2%), xissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha eng kam To'raqo'rg'on 1 004 ta (5,0%), Mingbuloq 739 ta (3,7%), tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari jamiga nisbatan ulushi, foizda




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonasi va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda



**Ro'yxatga olingan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2021 yilning 1 iyul holatiga)

	<i>Ro'yxatga olingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Jami	34 641	100,0	33 555	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 880	8,3	2 805	8,4
sanoat	7 349	21,2	7130	21,2
qurilish	2 549	7,4	2 465	7,3
savdo	10 552	30,5	10170	30,3
tashish va saqlash	1 138	3,3	1 010	3,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 558	4,5	1 491	4,5
axborot va aloqa	515	1,4	503	1,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	696	2,0	682	2,0
boshqa turlari	7 404	21,4	7 199	21,5


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2021 yilning 1 iyul holatiga)**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 96,9 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,1 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da

01.07.2020 yil



01.07.2021 yil




Faoliyatsizlar

Faoliyat ko'rsatayotganlar

2021 yil 1 iyul holatiga 29 262 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 7 370 ta, oilaviy korxonalar – 1 155 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 20 083 tani va 654 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021 yil yanvar-iyun oylarida jami 3 421 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, 2020 yilning mos davriga nisbatan 7,1 foizga ko'p tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (853 ta), Chust (339 ta), To'raqo'rg'on (271 ta), Chortoq (254 ta), Pop (224 ta), Norin (220 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kam esa, Namangan (205 ta), Kosonsoy (201 ta), Yangiqo'rg'on (180 ta), va Mingbuloq (179 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda
(2021 yilning 1 iyul holatiga)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(2021 yilning 1 iyul holatiga)




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(2021 yilning 1 iyul holatiga)



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, birlikda




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda
(2021 yilning yanvar-iyun oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 35,0 %, sanoatda 27,5 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 12,2 %, qurilishda 6,3 % ni tashkil etadi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2021 yilning yanvar-iyun oylarida)



2021 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

45,2 %



Sanoat

7,5 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

23,4 %



Savdo

20,1 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

0,4 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

3,4 %



Boshqa turlar

2021 yil 1 iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 29 118 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2020 yil mos davriga nisbatan 21,4 % ga oshgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 9 819 tasi (jami sub'ektlarning 33,7 %) Namangan shahriga, 2 459 tasi (8,5 %) Chust, 2 088 tasi (7,2 %) Namangan hamda 1 948 tasi (6,7 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 246 tasi (4,3 %) Mingbuloq, 1 380 tasi (4,7 %) Norin, 1 468 tasi (4,8 %) Yangiqo'rg'on, 1 603 tasi (5,5 %) Chortoq, 1 698 tasi (5,8 %) Uchqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
hududlar bo'yicha soni**

	2020 yil 1 iyul holatiga		2021 yil 1 iyul holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	23 987	100,0	29 118	100,0
Namangan sh.	8 541	35,6	9 819	33,7
Mingbuloq	1 010	4,2	1 246	4,3
Kosonsoy	1 472	6,1	1 793	6,2
Namangan t.	1 787	7,4	2 088	7,2
Norin	1 074	4,5	1 380	4,7
Pop	1 405	5,9	1 803	6,2
To'raqo'rg'on	1 487	6,2	1 873	6,4
Uychi	1 568	6,5	1 948	6,7
Uchqo'rg'on	1 285	5,4	1 698	5,8
Chortoq	1 212	5,1	1 603	5,5
Chust	1 987	8,3	2 459	8,5
Yangiqo'rg'on	1 159	4,8	1 408	4,8


Faoliyat ko'rsatayotgan jami 29 118 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 10 144 tasi (34,9 %) - savdoda, 7 080 tasi (24,3 %) - sanoatda, 2 770 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 2 450 tasi (8,4 %) - qurilishda, 1 487 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1 104 tasi (3,8 %) - tashish va saqlashda, 579 tasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 472 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 3 032 tasi (10,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2021 yilning 1 iyul holatiga)



2021 yil yanvar-iyul oylarida jami 3 411 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,1 foizga ko'p tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (849 ta), Chust (338 ta), To'raqo'rg'on (271 tadan), Chortoq (254 ta), Pop (243 ta), Uchqo'rg'on (238 ta), Uychi (237 ta) va Norin (219 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Namangan (205 ta) Kosonsoy (201 ta), Yangiqo'rg'on (179 ta), va Mingbuloq (177 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

2021 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (1 230 ta), sanoatda (965 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (425 ta), qurilishda (222 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat-larda (162 ta) tashkil etilgan. Eng kamlari esa, axborot va aloqada (57 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (61 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, 2021 yilning 1 iyul holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlar-ning ulushi 3,1 % ni (945 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 162 taga ko'paygan.


Hisobot davrida 641 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 161 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 25,1 %) qo'shib olish orqali tugatilgan.

**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da
(2021 yil yanvar-iyun)**



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2021 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 276 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26 taga yoki 10,4 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 179 tasi qo'shma korxonalar, 97 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda
(2021 yilning 1 iyul holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda
(2021 yilning 1 iyul holatiga)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar 85 ta (30,8 %), Kosonsoy 29 ta (10,5), Pop 26 ta (9,4 %), Chortoq 26 ta (9,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Mingbuloq 7 ta (2,5), Uchqo'rg'on 10 ta (3,6 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi**
(2021 yilning 1 iyul holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi % da
Viloyat jami	276	100,0
Namangan sh.	85	30,8
Mingbuloq	7	2,5
Kosonsoy	29	10,5
Namangan t.	17	6,2
Norin	11	4,0
Pop	26	9,4
To'raqo'rg'on	17	6,2
Uychi	17	6,2
Uchqo'rg'on	10	3,6
Chortoq	26	9,4
Chust	19	6,9
Yangiqo'rg'on	12	4,3


Faoliyat ko'rsatayotgan 276 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 137 tasi (49,6 %) sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 39 ta (14,1 %), 33 ta (12,0 %) savdo, 20 tasi (7,3 %) qurilish, 13 tasi (4,7 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 8 tasi (2,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3 tasi (1,1 %) tashish va saqlashda hamda 23 tasi (8,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**
(2021 yilning 1 iyul holatiga)

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	276	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	39	14,1
sanoat	137	49,6
qurilish	20	7,3
savdo	33	12,0
tashish va saqlash	3	1,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8	2,9
axborot va aloqa	-	-
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	13	4,7
boshqa turlari	23	8,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da
(2021 yilning 1 iyul holatiga)



- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar

2021 yil yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 19 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12 taga kamaygan yoki 61,3 foizni tashkil qilgan.

Bunda, Turkiya va Xitoy Xalq Respublikalari – 4 tadan, Rossiya Federatsiyasi – 3 ta, Janubiy Koreya, va Pokiston Islom Respublikalarida 2 – tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.


Viloyatdagi 19 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Namangan shahar (8 ta), Uchqo'rg'on va Chortoq (3 tadan), Chust (2 ta), Kosonsoy, Norin va Namangan tumanlari (1 tadan) hissalariga to'g'ri keladi. Mingbuloq, Pop, To'raqo'rg'on, Uychi va Yangiqo'rg'on tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
hududlar kesimidagi soni va ulushi**
(2021 yil yanvar-iyun)


	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Viloyat jami	19	100,0
Namangan sh.	8	42,0
Mingbuloq	-	-
Kosonsoy	1	5,3
Namangan t.	1	5,3
Norin	1	5,3
Pop	-	-
To'raqo'rg'on	-	-
Uychi	-	-
Uchqo'rg'on	3	15,8
Chortoq	3	15,8
Chust	2	10,5
Yangiqo'rg'on	-	-

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 5 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4 ta, qurilishda 4 ta, savdoda 3 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(2021 yil yanvar-iyun)



2021 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2021 yil 1 iyul holatiga 1 191 tani tashkil etib, ulardan 1 155 tasi yoki 97,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 56,2 % ga oshganligini ta'kidlash mumkin.